

BOLALARDA YUQORI JAG' TORLIGI MUAMMOSINI KENGAYTIRISHNING SAMARALI USULLARI

X.O.Dusmuradova

Alfraganus Universiteti NOTT

Dolzarbli. Hozirgi zamonaviy ortodontiyada yuqori jag'ning skeletal muammolari keng o'rganilib, uni davolash chora-tadbirlari ham takomilashib bormoqda. Ayniqsa, yuqori jag' torligi holati bolalar va o'smirlarda ko'p kuzatilayotgani ularda jag'ni kengaytirish muammosini samarali yechishni taqozo etmoqda. Bunday ortodontik muolaja uzoq vaqt talab etishini inobatga olib, aniqlik bilan tashxislash va to'g'ri davolash rejasini tuzish hamda bemorlarni dinamikada kuzatib nazorat qilish o'ta muhim hisoblanadi.

Kalit so'zlar: yuqori jag', ortodontik muammo, ortodontik muolaja, dinamik kuzatuv, Nord va Derixsvayler apparati, vintli moslama, fotometrik tahlil.

Актуальность. В современной ортодонтии широко изучаются проблемы скелета верхней челюсти, а также совершенствуются методы их лечения. Тот факт, что сужение верхней челюсти особенно распространено у детей и подростков, требует эффективного решения проблемы расширения челюсти у них. Учитывая, что такое ортодонтическое лечение требует длительного времени, крайне важно точно поставить диагноз, разработать соответствующий план лечения и наблюдать за пациентами в течение длительного времени.

Ключевые слова: верхняя челюсть, ортодонтическая проблема, ортодонтическое лечение, динамическое наблюдение, аппарат Норда и Дерихсвайлера, винтовое устройство, фотометрический анализ.

Relevance. In modern orthodontics, skeletal problems of the upper jaw are widely studied, and measures for their treatment are also being improved. In particular, the fact that the condition of the upper jaw is often observed in children and adolescents

requires an effective solution to the problem of jaw expansion in them. Given that such orthodontic treatment requires a long time, it is extremely important to accurately diagnose and draw up a correct treatment plan, as well as monitor and control patients in dynamics.

Keywords: upper jaw, orthodontic problem, orthodontic treatment, dynamic monitoring, Nord and Derichsweiler apparatus, screw device, photometric analysis.

Maqsad. Bolalarda yuqori jag'ni kengaytirishda samarali usulni tadbiq etish. Nord, Derixsvayler apparatlari hamda kengaytiruvchi vintli apparatlardan foydalanib, ular samaradorligini bemorlarda dinamik kuzatib tahlil qilish.

Meterial va metod. Bemorlarda o'tkazilgan ortodontik muolaja natijalarini baholash maqsadida, ulardan davolashdan oldingi va keyingi fotometrik suratlar olinib, ularda tish yoyini antropometrik (Pon) o'lchovi amalga oshirildi hamda tahlil qilindi. Davolashdan keyingi tish qatori va suyak ichi va suyak chokidagi bo'ladigan o'zgarishlarni kuzatishda esa rentgen hamda antropometrik usullardan biri yordamida o'rganiladi.

Natijalar. Kuzatuvdagi 14 ta bemorda yuqori jag'ni kengaytiruvchi Nord va Derixsvayler, kengaytiruvchi vintli apparatlari qo'llanildi. Ortodontik muolajadan oldingi va keyingi natijalar jag' va tish qatori kengayganligi aniqlandi.

Xulosa. Dinamik kuzatuvdagi 14 ta bemorda yuqori jag' torligi tashxisi ostida ortodontik muolajadan so'ng jag' kengaygan va yuz tuzilishida ijobiy o'zgarishlar aniqlandi. Rentgen va antropometrik (Ponn) tahlil o'tkazilganda qo'llanilgan Nord, Derixsvayler apparati hamda kengaytiruvchi vintli moslamalar mazkur bemorlarda yuqori jag' choki bo'ylab qisman kengayib, yuqori jag' tishlarning butun vestibulyar tomonga siljishi kuzatildi. O'tkazilgan tekshiruvlar xulosasiga ko'ra bolalarda yuqori jag' torligi muammosini samarali davolashda Nord va Derixsvayler apparatlari yordamida ijobiy natijaga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Дхауи Хатем Бен Мохамед Сахби. Усовершенствование антропометрических методов диагностики трансверзальных аномалий зубных рядов и прикуса и терапия заболеваний пародонта при ортодонтическом лечении. Автореф. дис. ... канд. мед. наук: 14.00.21. – Одесса, 2005 – 13.с
2. Клиническая ортодонтия: учебное пособие / И.В.Токаревич [и др.]. – Минск: БГМУ, 2019. – 202 с. 2. Общая ортодонтия: учебное пособие / И.В. Токаревич [и др.]. – Мн: БГМУ, 2016. – 159 с.
3. Персин, Л.С. Ортодонтия. Диагностика и лечение зубочелюстнолицевых аномалий и деформаций. Учебник / Л.С. Персин, М.Я. Алимova, М.А. Колесов. – М.: ГЭОТАР-Медиа, 2015. – 640 с.
4. Рублевский Д.В. Общая ортодонтия = General orthodontics: учеб.- метод. пособие. – Минск: БГМУ, 2016. – 11 с.